

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**ISMOILOV A.Sh.**

**60811500-ZOOINJENERIYA (YILQICHILIK VA TUYACHILIK)  
TA'LIM YO'NALISHI 2 –БОСҚИЧ 202-GURUH TALABALARI  
UCHUN “HAVODAGI CHANG VA MIKROBLARNI ANIQLASH”  
MAVZUSIDAGI AMALIY DARS ISHLANMASI**

**Tayyorladi:**

**Ismoilov A.Sh.- “Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti” kichik ilmiy  
xodimi**

**Taqrizchilar:**

**Qo‘chqarova S. - “Samarqand viloyat hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq  
ovqat maxsulotlari xavfsizligi davlat markazi I.F.A va  
P.Z.R” laboratoriyasi mudiri:**

**Quldoshev G'.M. - “Veterinariya farmatsevtikasi” kafedrasи assistenti, v.f.f.d.**

<b>Mavzu:</b>	Havodagi chang va mikroblarni aniqlash.
---------------	---

### 1.1. Mashg‘ulotni o‘qitish texnologiyasi.

<b>Mavzu:</b>	<b>Havodagi chang va mikroblarni aniqlash.</b>
<b>O‘quv mashg‘ulotning shakli</b>	<b>Amaliy mashg‘ulot</b>
<b>O‘quv mashg‘ulotining tuzilishi</b>	<p>1. Chang va mikroorganizmlarning organizmga ta’siri.</p> <p>2. Chang va mikroorganizmlarga qarshi kurash choralari.</p> <p>3. Chang va mikroorganizmlarni aniqlash yo‘llari.</p>
<b>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</b> : chorvachilik binolari havosi tarkibida o‘chraydigan har xil changlar va mikroorganizmlarni ko‘payishiga sabab bo‘lgan faktorlarni va ularni aniqlash yo‘llarini o‘rganish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b> - Chang haqida tushuncha berish; - Mikroblar haqida tushuncha berish; - Aniqlash haqida tushuncha berish;	<b>O‘quv faoliyatining natijalari: Talaba:</b> - Chang haqida so‘zlaydilar ; - . Mikroblar haqida tushuncha hosil qiladi; - Aniqlashni o‘rganish
<b>Ta’lim usullari</b>	BBB texnikasi, Aqliy hujum, blits-so‘roq, Sinkveyn, Assesment texnikasi
<b>Ta’limni tashkillash-tirish shakli</b>	Individual, kichik guruhlarda va jamoaviy ishslash
<b>Ta’lim berish sharoiti</b>	Namunadagi auditoriya
<b>Monitoring va baholash</b>	Og‘zaki so‘rov, test nazorati

## 1.2. Mashg‘ulotni o‘qitish texnologik xaritasi

O‘qitishning bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	O‘qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min)	<p>1.1. Mavzuning nomi, maqsadi, kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi.</p> <p>1.2. Talabalarni faollashtirish uchun aqliy hujum usulini qo‘llaydi.</p>	<p>1.1. Tinglaydilar</p> <p>1.2. Yozib oladilar</p> <p>1.3. Savollarga javob beradi-lar</p>
2-bosqich. Tayyorlov (5 min)	<p>2.1. Mavzu bo‘yicha bajariladigan ish bilan tanishtiradi.</p> <p>2.2. Talabalarni kichik guruhlarga ajratadi.</p> <p>2.3. Ekspert varag‘ini tarqatadi.</p> <p>2.4. Baholash mezoni bilan tanishtiradi.</p>	<p>2.1. Tanishadilar</p> <p>2.2. Kichik guruhlarga bo‘linadilar</p> <p>2.3. Topshiriq bilan tanishadi va bajarishga kirishadi.</p> <p>2.4. Tinglaydi, aniqlik kiritadilar</p>
3-bosqich Asosiy (60 min)	<p>3.1. Guruhlarda ishni bajarilishini kuzatadi.</p> <p>3.2. Taqdimot boshlanganligini e’lon qiladi.</p> <p>3.3. Kamchilik va xatolarni ko‘rsatib, baholaydi.</p>	<p>3.1. Guruhlarda har bir talaba faol ishlaydi.</p> <p>3.2. Guruh bo‘yicha bitta talaba taqdimot qiladi.</p> <p>3.3. Tinglaydi, aniqlik kiritadi.</p>
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	<p>4.1. Mavzuga yakun yasaydi.</p> <p>4.2. Bajarilgan ishni talabalarni kelajakdagи faoliyatidagi o‘rnini izohlaydi.</p> <p>4.3 Unga vazifa beradi.</p>	<p>4.1. Tinglaydilar, savollar beradi.</p> <p>4.2. Eshitadi.</p> <p>4.3. Yozib oladilar.</p>

### Mavzu: Havodagi chang va mikroblarni aniqlash

#### B.B.B. texnikasi

Nº	Mavzu savoli	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bildim
1	2	3	4	5
1	Chang qanday hosil bo‘ladi?			
2	Chang miqdori qancha bo‘lishi kerak?			
3	Mikrob qanday aniqlanadi?			
4	Mikroblar soni qanday aniqlanadi?			

**Mashg‘ulotning maqsadi:** chorvachilik binolari havosi tarkibida o‘chraydigan har xil changlar va mikroorganizmlarni ko‘payishiga sabab bo‘lgan faktorlarni va ularni aniqlash yo‘llarini o‘rganish.

*Darsga kerakli ko‘rgazmali qurollar, reaktivlar -jadvallar, quritishshkafi, analistik tarozi, eksikator, aspirator, allonj ya’ni diametri 15 mm va uzunligi 10 sm li shisha naycha, chang sanagich moslama, PSB-1 asbobi, Krotov apparati, to‘yimli oziqa mu‘lit, fiziologik eritma, pipetka, buyum oynachasi, mikrobni ekadigan ilmoq, glitserin surtilgan shisha plastinkalar va boshqalar.*

*Darsning mazmuni* -havo tarkibida anorganik va organik changlar uchrab molxonalar havosi tarkibida  $3 - 5 \text{ mg/m}^3$  gacha ruxsat etiladi. Havodagi changlar hayvonlar organizmiga tushgan paytda turli kasallikkarni keltirib chiqaradi bunga pnevmokoniozlar deyiladi. Masalan: Antrakoz ko‘mir changlari natijasida, silikoz kremniy changlaridan, xolikoz ohak changlaridan kelib chiqadi.

Havodagi changlar miqdori qo‘yidagi usullarda aniqlanadi:

*Changni tortish usulida aniqlash* - 0,7 - 1 g paxta olib, allonjni ichiga bir xil qalilikda tiqamiz. Allonj paxtasi bilan birgalikda  $+100^0 - 105^0\text{C}$  haroratda quritishshkafida quritiladi va eksikatorga solib sovutiladi. Allonjning tor tomonini aspiratorga o‘lab, chang miqdori aniqlanadigan joyga olib borib, allonj orqali 100 litr havo o‘tkaziladi. Havo o‘tkazgandan keyin allonjning avvalgi og‘irligidan keyingi og‘irligi farq qilsa, bu paxtada ushlab qolning changning miqdorini bildiradi.

*Changni sanash usuli bilan aniqlash* - bu usul Ouense yoki Matusevichning chang sanagich asboblarining yuzasiga yopishgan changlarni sanashga asoslangan.

Changni aniqlashdan bir necha kun avval shisha tayoqcha bilan toza glitserindan ikkita shisha plastinkalar orasiga tomizib, yaxshilab bosib qog‘ozga o‘rab qo‘yamiz. Analizga namuna olishda chang sanagichning qopqog‘ini ochib, shisha plastinkani chiqarib olamiz.

Ochiq asbobni tekshiriladigan havoda pastdan yuqoriga harakatlantirib pastini shisha plastinka va og‘zini qopqog‘i bilan yopiladi. Glitserin surtilgan shisha plastinkalarning ustkisini asta siljitimiz, pastkisi esa chang sanagichni tubidagi teshikni bekitgan bo‘yicha, ikki tomonidan prujina bilan mahkamlab qo‘yiladi. Asbob chappa qilib 10 minut tutilgandan keyin og‘zini yuqoriga qilib to‘g‘rilanadi. Tagidan yangi, toza shisha plastinka kirgizib, glitserinlangan chang o‘tirgan plastinkani ustiga yopib, ikkalasini ham chiqarib olinadi. Har bir  $1 \text{ sm}^2$  yuzadagi changni mikroskopning kichik ko‘rsatkichida sanab chiqiladi.

*Xisoblash yo‘li:* har  $1 \text{ sm}^3$  havodagi changni aniqlash uchun  $1\text{sm}^2$  yuzaga o‘tirgan changlarni sonini o‘nga bo‘lamiz,  $1\text{lh}$  havodagisini aniqlash uchun 100 ga ko‘paytiramiz yoki  $1\text{m}^3$  havodagi changni aniqlash uchun esa  $1 \text{ sm}^2$  yuzadagi changlarning sonini 1000 ga ko‘paytiramiz.

### *Havodagi mikroorganizmlarni aniqlash.*

Zoogigienik tajribada eng oddiy usul mikroblarni o‘tirtirish usuli bo‘lib bundan tashqari mikroblarni Krotov apparati yordamida hamda maxsus oziq muhitlariga ekish usullaridan foydalaniladi.

1. *Sedimentatsiya usuli* - mikroorganizmlarni o‘tirtirish usulida aniqlashda molxonadagi mikroblar aniqlanadigan joylarga 5-10 minut davomida oziq muhiti qo‘yilgan Petri kosachalari ochiq holda qo‘yiladi. So‘ngra oziq muhitiga o‘tirgan mikroorganizmlarni o‘sishini  $+37^\circ\text{C}$  li termostatda 48 soat saqlanganidan keyin aniqlash mumkin.
2. *Fiziologik eritmaga ekish usuli* - Aniq hajmdagi havodagi mikroorganizmlarning sonini aniqlash uchun surg‘ichlarga fiziologik eritma solinib, u orqali ma’lum miqdorda havo o‘tkaziladi. Surg‘ich aspiratorga ulanib, fiziologik eritma orqali surg‘ichdan minutiga 25–50 l havo o‘tkaziladi. Shu havo o‘tkazilgan fiziologik eritmadan 0,5 - 1 ml olib, zararsizlantirilgan pipetka yordamida oziqa muhiti qo‘yilgan Petri kosachasiga ekamiz va  $+37^\circ\text{C}$  li termostatda 3-4 sutka, keyin  $+27^\circ\text{C}$  da ikki sutka termostatda saqlaymiz. O‘sigan mikrob kolloniyalarini PSB-1 priborida sanalib  $1 \text{ m}^3$  havodagi mikroblar soni aniqlanadi.

3. *Krotov apparatida mikroblarni aniqlash* – Krotov apparati silindrsimon shaklda bo‘lib, ichki tomoniga markazdan qochma harakatlanuvchi ventilyator o‘rnatilgan, ustki tomoniga aylanuvchi stolcha joylashtirilgan. Apparat qopqog‘ida ponasimon yoriq bo‘lib havo surish uchun xizmat qiladi. Mikroblarni aniqlash uchun apparat 3-5 minut ishlatib qizdiriladi va minutiga 25 litr havo utkazishga mo‘ljallanadi. So‘ngra aylanayotgan stolcha ustiga oziqa muhiti quyilgan Petri kosachasi quyilib, apparat qopqog‘i yopiladi va 100 litr havo utkaziladi. Keyin Petri kosachsi apparatdan olinib, qopqog‘i yopiladiva  $+37^{\circ}\text{C}$  li termostatda 24 soat saqlanadi. Shundan so‘ng o‘sigan mikroblar koloniyasi maxsus PSB-1 priborida sanaladi.

*Topshiriq № 1-* Sedimentatsiya usuli va Krotov apparati yordamida  
mikroblarni aniqlang.

*Topshiriq № 2-* Tortish usulida changlarni aniqlang.

O’tkazilgantekshirishnatijalari

Nazorat savollari:

1. Chang va mikroorganizmlarning organizmga ta’siri.
2. Chang va mikroorganizmlarga qarshi kurash choralar.
3. Chang va mikroorganizmlarni aniqlash yo‘llari.
4. Changlar natijasida kelib chiqadigan kasalliklarni aytинг.
5. Pnevmoniozlar nima.

**Qo‘srimcha topshiriqlar:**

**1. Krotov apparati qanday maqsadda ishlatiladi.**

- A. Havodagi mikroorganizmlarni aniqlash uchun.
- B. Binolarni dezinseksiyalash uchun.
- D. Binolarni dezinfeksiyalash uchun.
- E. Suvdagi mikroorganizmlarni aniqlash uchun.

## **2. Changlardan kelib chiqadagan kasalliklar.**

- A. Rinit, faringit, traxent, bronxit, pnevmokonioz, dermatit, kon'yuktivit, keratit va boshqalar
- B. Burun-tomoq, bronx, oshqozon, ichak, akabaltoz, akuproz kasalliklari
- C. Pnevmoniya, xolikoz, silikoz, gastrit, pnevmoniya, xolitsistit
- E. Tuberkulez, brutsellez, silikoz va boshqalar.

## **3. Tuproqning mexanik tarkibi deb nimaga aytildi.**

- A. Tuproqdagi qattiq jinslarning foizlarda bo'lishiga aytildi.
- B. Tuproqdagi yumshoq moddalarning grammada bo'lishiga aytildi.
- C. Tuproqdagi gazsimon jinslarning foizlarda bo'lishiga aytildi.
- E. Tuproqdagi suyuq moddalarning litrda bo'lishiga aytildi.

## **4. Tuproqni sanitariya tomondan baholashda nimaga etibor beriladi.**

- A. Fizik, kimyoviy, bioproba, mikologik va gelmintologik tekshirishlarga.
- B. Fizik, kimyoviy, bakteriologik va gelmintologik tekshirishlarga.
- D. Termik, kimyoviy, biologik va gelmintologik tekshirishlarga.
- E. Fiziologik, kimyoviy, bakteriologik va mikrobiologik tekshirishlarga.

## **5. Tuproqning fizik xossalariini tekshirishda nimalar aniqlanadi.**

- A. Mexanik tarkibi, g'ovakligi, umumiy namligi, gigroskopikligi, havo va suv o'tkazuvchanligi, namlik sig'imi, kapillyarligi aniqlanadi
- B. Mexanik tarkibi, suyuqligi, eritmasi, umumiy namligi, gigroskopikligi, havo va suv o'tkazuvchanligi, kapillyarligi aniqlanadi.
- D. Tuproqning g'ovakligi, umumiy suvi, qattiqligi, havo o'tkazuvchanligi, namlik sig'imi, kapillyarligi aniqlanadi.
- E. Tuproqning mexanik tarkibi, oksidlanishi, gaz tarkibi, g'ovakligi, umumiy namligi, havo va suv o'tkazuvchanligi, kapillyarligi aniqlanadi.

## **6. Tuproqni bakteriologik tekshirishda nimalar aniqlanadi.**

- A. Mikroblar soni, ichak tayoqchasi titri va indeksi hamda gjija tuxumlari bor yo'qligi aniqlanadi.
- B. Mikroblar turi, ko'k yiring tayoqchasi va kokklar hamda gjija tuxumlari bor

yo‘qligi aniqlanadi.

D. Mikroblarning umumiyl turi, ichak tayoqchasi titri va indeksi hamda kanalar bor yo‘qligi aniqlanadi.

E. Mikroblar soni va turlari, viruslar titri va miqdori hamda hashoratlar tuxumi bor yo‘qligi aniqlanadi.

### **Foydalanimanadadabiyotlar ro’yxati**

1. Suvonqulov Y. A. «Qishloq xo‘jalik hayvonlari gigienasi» Toshkent 1994 y.
2. KuznetsovA.F., DemchukM.V.- «Gigienaselskoxozyaystvennyx jivotnyx»  
Moskva, 1991
- 3.Medvedskiy V.I. «Soderjanie, kormlenie i uxod za jivotnymi». Minsk, 2007
- 4.KochishI.I., KalujnyyN.S., VolchkovaL.A., NesterovV.V. «Zoogigiena»,  
Moskva, 2008
- 5.Albomdlyaselskogostroitelstva, I - IItom.Moskva, 1990.

### **Internet saytlari**

[www.wikipedia;](http://www.wikipedia;)  
[www.cnshb.ru;](http://www.cnshb.ru;)  
[www.ya-fermer.ru](http://www.ya-fermer.ru)